

Andijon davlat pedagogika instituti  
“Maktabgacha ta’lim” kafedrası o’qituvchisi  
**Jo’raxo’jayev Muhammadaziz Halilxo’jayev**  
“Logopediya” yo’nalishi 1-bosqich talabasi  
**Mo’minova Odinaxon**

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdá autizm sindromli bolalarni psixologik tashxislash tamoyillarining amaliy jihatlari keltirilgan. Autizm sindromli bolalar bilan olib borilishi zarur bo’lgan korreksion vazifalar asoslanib, autizm sindromli bolalarning psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi.

**Kalit so’zlar:** autizm, diqqat, idrok, xotira, markaziy nerv, stimulyatsiya, sensor signal, sezgi organlar.

Autizm muammosini hal etishda ushbu sindromi bo’lgan bolalar tomonidan atrof-muhitni qay darajada idrok etishini o’rganmay turib, ularning kuchli tomonlari va zaif jihatlari, boshqacha aytganda, muammolarini aniqlay olmaymiz. Autizm sindromi bo’lgan bolalarning hayot davomida duch kelayotgan sensor, ijtimoiy va emotsional qiyinchiliklari axborotlarni idrok qilishdagi individual o’ziga xosliklari bilan bog’liqdir.

Markaziy nerv sistemasi va asosan bosh miya shunday tuzilishga egaki, kelayotgan barcha sensor axborotlarni umumiy tizim ostiga tartibga solib, qayta ishlash qobiliyatiga ega. Markaziy nerv sistemasining hech qanday qismi o’zicha, alohida tarzda yoki boshqa tizimlardan ajralgan holda faoliyat ko’rsata olmaydi. Axborotlar uning bir qismidan boshqa qismiga uzatilib turadi. Teri sezgisi ko’rishga, ko’rish muvonatni ushlab turishga, muvozanat tananing fazodagi holati va harakatini sezishga yordam beradi.

Miya uchun albatta stimulyatsiya zarur, u miyani qo’zg’otadi va unda funksional faollikni yaratadi. Shu tariqa nafas olish, ovqat iste’mol qilish, harakatlanish, nutq va o’quv faoliyatini amalga oshirish imkoni tug’iladi. Yetarlicha stimulyatsiya miya hujayralari o’rtasidagi bog’liqliklar miqdorining ko’payishiga olib keladi. Har sekundda miyani sezgi organlardan ko’p miqdordagi axborotlar keladi. Miya sensor signalini tashkillashtirish, tartibga solish, ular orasidan muhimlarini saralab olish va yaroqsizlarini ajratib olish zarur.

Ba’zi autistik cheklanishlari bo’lgan odamlar bitta ma’lum sohaga qaratilgan ajoyib qobiliyatlarini namoyon etadilar va boshqalari esa me’yoriy “normal” holatga tushib qoladilar. Shunga qaramay, butun olamda bu hastalikka xanuzgacha davó topilgani yo’q. Autizm nerv sistemasining kasalliklaridan biridir. Ushbu nuqson bolalarda turlicha namoyon bo’ladi. Ayrim olimlar fikricha autizm miya kasalliklarining belgilaridan biri bo’lib, bunda bola tevarak-atrofga nisbatan befarq, beparvo bo’ladi. Natijada atrofdegilar bilan aloqada bo’lmaydi, muloqot qilmaydi. Bola o’z-o’zi bilan bo’lib, o’zicha hayajonlanib, kuyunib, nimalardandur tashvishlanib, o’z ichki dunyosida yashaydi.

Bola hayotining dastlabki yillarida jamiyat bilan o’zaro aloqadorligini, harakatini buzadigan salbiy omillar uning miyasini yetilish jarayonini kechiktiradi, tormozlaydi, analizatorlararo murakkab tizimning shakllanishiga to’sqinlik qiladi. Bunday bolalarga o’z vaqtida psixologik-pedagogik, korreksiyalash yordamini ko’rsatish uchun uning psixik va ijtimoiy rivijlanishdagi nuqsonlarni mumkin qadar erta aniqlash, keyinchalik bartaraf etilishi mushkul bo’lgan nuqsonlarni ilk yoshdan bartaraf etish, shu bilan bolalar nogironligini oldini olishda juda muhim ahamiyati kasb etadi.

Bolalar autizimi turli shakllarda, aqliy va nutqiy rivojlanishning turli darajalarida namoyon bo’ladi. Shu sababli autik bolalarni maxsus va umumta’lim maktabgacha ta’lim muassasalarida, yordamchi maktablarda uchratish mumkin. Hamma joylarda bunday bolalar boshqa odamlar

bilan o'zaro aloqa qilishda, muloqotda, ijtimoiy moslashishda juda katta qiyinchiliklarga duch keladilar. Autik bola chettan qaraganda erkalatilgan, tantiq, tarbiyasiz, injiq bola haqda tasavvur hosil qilishi mumkin, atrofdagilarning ko'chada, transportda, do'konda uni tushunmasliklari, tanqidlari bolaning hamda ota-onasining holatini murakkablashtiradi.

Katta yoshli odam autizmdan qiynalsa, darrov ko'zga tashlanib qoladi. U sodir bo'layotgan voqea hodisalarga befarq qaraydi, hissiyotga berilmaydi va o'ta loqayd bo'ladi. Odam xuddi o'z dunyosida yashayotgandek tuyuladi. U begonalar bilan istaristamas muloqotga kirishadi. Faqat qarindoshlari va yaqin kishilari bilan munosabatda bo'ladi. Autistlarni quruq gapdan ko'ra sukutni afzal biladigan introvertlardan ajrata bilish muhimdir. Autistlarning aqliy qobiliyati past bo'ladi, ko'rsatkichi 50 dan oshmaydi va biror nimani o'rganishi juda qiyin.

Autizmdan qiynalayotgan hamda muloqotga aralashmaydigan katta yoshli kishilar o'z fikr-hayollari bilan band bo'lishadi. Ular turli bema'ni hatti-xarakatlarni takrorlayverishi mumkin. Kattalar autizmi ko'pincha miyaga o'nashib qolgan g'oyalar bilan kechadi. Bu vaqtda ular atrofdagi olamga loqayd bo'lib qolishadi. Ularni bu holatdan faqat birorta kutilmagan, notabiiy vaziyat chiqarishi mumkin. Ko'pincha autizmdan qiynaladigan bemorlarda tutqanoq kuzatiladi bu ko'pincha og'ir asoratlarga olib keladi.

Ma'lumki, autistlarning qariyb yarmi o'ziga shikast yetkazib qo'yishadi. Bunday bemorlar nazorat, parvarish va e'tiborda bo'lishi talab etiladi, davolash samaradorligi esa kasallik bosqichi, darajasi va har bir autistning o'ziga xosligiga bog'liqdir.

Shuni xulosa qilish mumkinki, bolalar autizmini korreksiyalash bu uzoq mashaqqatli, murakkab jarayon bo'lib, odamning ruhan va jismonan tinka-madorini quritadi. Bunday bolalarning ota-onasi shunga tayyor turishlari kerakki, kasallikka qarshi kurashish uzoq davom etadi va muvaffaqiyatsizlik bilan tugashi ham mumkin. Dori-darmonlar bilan davolash bolalar autizmida juda samarali vosita hisoblanmaydi. Biroq ular qo'shilib keluvchi boshqa alomatlarini bartaraf etishi mumkin. Amaliyotda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga, ayniqsa autizm bilan kasallangan bolalar uchun mo'ljallangan korreksion metodikalar ko'p emas. "Alohida e'tiborga muhtoj" bolaga nisbatan birlamchi tibbiy va psixologik yondashuvdan, shuningdek, pedagogik uslublardan farqlanuvchi asosiy metodika va texnologiyalar mavjud. Bular - TEACCH, ABA, Son-Rise, Predmetoterapiya, Sensor integratsiya, Peks terapiya va Flour Time kabi metod va texnologiyalardir.

Autizm sindromli bolalar bilan ishlash davomida ularning sensor impulslarini qayta ishlashi haqidagi bilimlarni to'plashimiz va ularga yordam qo'lini cho'zishimiz uchun kerak bo'ladigan vosita va usullarni topishimiz darkor. Metodikalarni qo'llash davomida ularning yuqori va quyi sezuvchanlik darajalarini ham diagnostika qilish muhim jihat hisoblanadi. Bu borada har bir bolaga individual yondashish hamda ularda namoyon bo'lgan sensor dezintegratsiyaning darajasiga qarab maqsadga yo'naltirilgani korreksion dasturlarni ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanish ushbu muammoni sezilarli darajada bartaraf etishga yo'l ochib beradi.

## **ADABIYOTLAR:**

1. Mo'minova L.R. Autizm sindromi, uning sabablari, turlari va bartaraf etish metodikalari (Toshkent "Spectrum Media Group" 2015 ).
2. Bozorova Z.J. Bolalarning ijtimoiy moslashuvi ( Andijon 2024 ).
3. Yunusov, M. (2020). КАР ВА ЗАЙФ ЭШИТУВЧИ БОЛАЛАР ТАЪЛИМИ ЖАРАЁНИДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИМКОНИАТЛАРИ. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(76). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6465](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6465)
4. Yunusov, M. (2020). THE IMPORTANCE OF MODERN TECHNICAL DEVICES IN THE DEVELOPMENT OF HEARING. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(71). извлечено от [https://science.iedu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6366](https://science.iedu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6366)